



DESCRIPTION OF A CHILD'S IMAGE IN UZBEK LITERATURE

Abduvakhob A. Kayumov
Doctor of Philosophy in Philology (PhD)
Fergana State University
Fergana, Uzbekistan

Jumagul B. Isakova
Master's student
Fergana State University
Fergana, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: child image, Uzbek prose, child psychology, child psyche, prototype, adventure.

Received: 26.05.22

Accepted: 28.05.22

Published: 30.05.22

Abstract: The article examines the work of the young writer Kobiljon Shermatov “The country in my grandmother's stomach”, where Uzbek prose is presented in children's literature. Some shortcomings made in the narration are investigated.

O'ZBEK ADABIYOTIDA BOLA OBRAZI TASVIRI

Abduvahob A. Qayumov
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Farg'ona davlat universiteti
Farg'ona, O'zbekiston

Jumagul B. Isaqova
Magistratura talabasi
Fargʻona davlat universiteti
Fargʻona, Oʻzbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit soʻzlar: bola obrazi, oʻzbek nasri, bola psixologiyasi, bola ruhiyati, prototip, sarguzasht.

Annotatsiya: Maqolada o‘zbek nasri bolalar adabiyotida ijod qilayotgan yosh adib Qobiljon Shermatovning “Buvamning oshqozonidagi mamlakat” asari o‘rganilgan. Qissada yo‘l qo‘yilgan ba’zi bir kamchiliklar tadqiq etilgan.

ОПИСАНИЕ ОБРАЗА РЕБЕНКА В УЗБЕКСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ

Абдувахоб А. Каюмов

доктор философии по филологии (PhD)
 Ферганский Государственный Университет
 Фергана, Узбекистан

Жумагул Б. Исакова

Магистр
 Ферганский Государственный Университет
 Фергана, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: детский образ, узбекская проза, детская психология, детская психика, прототип, приключение.

Аннотация: В статье изучено произведение молодого писателя Кобилжона Шерматова “Страна в животе моей бабушки”, где узбекская проза представлена в детской литературе. Исследованы некоторые недостатки, допущенные в повествовании.

KIRISH

Bolalar adabiyoti o‘z oldiga kelajak avlodni jismonan baquvvat, ruhan pok, fikran sog‘lom, iymon-e‘tiqodi butun, bilimi, ma‘naviyati yuksak mard va jasur, vatanparvar avlodni tarbiyalashdek murakkab vazifani qo‘yganligi bilan ajralib turadi. Bu adabiyotning o‘ziga xos xususiyati o‘zgaruvchan hodisa bo‘lib, u kitobxon yoshi, tarixiy davr va muhit bilan bevosita bog‘liq.

Zamonaviy o‘zbek nasri rivojida bolalar adabiyoti o‘ziga xos yo‘nalish hisoblanadi. Adabiyotda bola obrazi dastlabki davrlardan hozirgi kungacha davr va qahramonning o‘ziga xos xususiyatlari adabiy tanqidchilar tomonidan turlicha o‘rganilgan. Ular olib borgan tadqiqotlarda bola obrazi genezi, tadrijiy takomilini tizimlashtirish, qiyosiy aspektlarda tadbiq etilgan. “Jumladan, akademik M.Qo‘shjonov, professor A.Qosimov, tadqiqotchi S.Babayevalarning ishlarini qayd etish mumkin. Xususan, A.Qosimov va S.Babayeva dissertasiyalari qiyosiy adabiyotshunoslik aspekti bajarilganligi bilan xarakterli. O‘zbek olimlaridan A.Rasulov, S.Matchonov, R.Barakayev, A.Xolmurodov, U.Uljaboyev, P.Shermuhammedov, Q.Qahramonovlarning tadqiqot va monografiyalari, U.Rasulova, Z.Ibragimova K.Turdiyeva, G.Jo‘rayeva, D.Rajabov va boshqalarning tezislari ham ushbu mavzuga bag‘ishlangan”. Bundan ko‘rinib turibdiki, bola obrazi mavzusi har bir davrda o‘zining dolzarb mavzu ekanligi bilan barchani birdek diqqatini tortib kelgan. O‘zbek milliy adabiyotida so‘nggi yillarda insonni davr bilan uzviylikda tasvirlashga, ruhiy olamini tahlil etishga e‘tibor tobora ortmoqda.

ASOSIY QISM

O'zbek adabiyotshunosligida ayni paytda zamonaviy o'zbek nasrida bola obrazi yetakchi bo'lgan asarlar misolida voqelikni badiiy ifodalash masalalarini zamonaviy yondashuvlar asosida ilmiy-nazariy jihatdan to'g'ri baholash muhim vazifalardan biridir. Ayniqsa, hozirgi zamonda butun bashariyat oldida paydo bo'layotgan biz ilgari duch kelmagan g'oyat murakkab muammolar, global xavf-xatarlarni birgalikda bartaraf etish, shu yo'lda barcha ezgu-niyatli insonlarni birlashtirishda, dunyo aholisini qariyb uchdan bir qismini tashkil etadigan yoshlarni gumanistik g'oyalar ruhida tarbiyalashda badiiy so'z san'atning o'rni va mas'uliyatini har qachongidan ham yuksaltirish zarurligini bugun hayotning o'zi taqozo etmoqda. Ijtimoiy hayotdagi voqea-hodisalar inson ruhiyatida in'koslanib, unda evrilish yuz berishi, bolalar ruhiyatida yaqqol namoyon bo'lishi, shubhasiz. Bu hol jamiyatdagi illatlar in'kosini ham chetlab o'tmaydi. Ko'p hollarda yozuvchi ijtimoiy, ma'naviy muammolarni aks ettirishda aynan bola obraziga murojaat etadi. Biz yashayotgan dunyoni teran anglash uchun inson hayotning muhim qismi bo'lgan bolalikka ilmiy-falsafiy nuqtayi nazaridan yangicha yondashuv talab etadi.

Biz o'rganayotgan ob'yekt zamonaviy o'zbek nasrida bola psixologiyasi (Qobiljon Shermatov) asaridadir. Aynan ilmiy ishimizda zamonaviy o'zbek nasrida bola ruhiyatining qaysi jihati yoritib berilganligini ilmiy tadbiq etamiz. Bu yosh ijodkor bolalar adabiyotining Xudoyberdi To'xtaboyev, Anvar Obidjon singari iste'dodli ijodkorlari izidan borayotgan yozuvchilardan biridir. Uning "Buvamning oshqozonidagi mamlakat" sarguzasht-fantast qissasi o'smir yoshdagi o'quvchilarga bag'ishlangan bo'lib, asar qishloq bolasi hayoti haqidadir. Asar bir qarashda Xudoyberdi To'xtaboyevning "Sariq devni minib", jahon adabiyotida esa Jonatan Sviftning "Gulliverning sayohatlari"ni yodga soladi. Muallif bilan suhbatlarning birida asar qahramoni Mahmud kosib aynan mening bobom prototipim degan fikrni bildirib o'tdi. Lekin tanqidchi U.Normatov "Talant tarbiyasi" nomli tanqidiy asarida yozuvchi Asqad Muxtor bilan bo'lgan suhbatda bu haqida quyidagicha fikr bildirdi: "Adabiyotshunoslikda "prototip" degan so'z juda shartli tushuncha. Buni ham lug'aviy ma'noda tushunmaslik kerak. Bittagiga sof prototip hech qachon bo'lmaydi. Ya'ni yozuvchi o'z qahramonining ichki dunyosi, tanish qiyofasi, hayoti va boshqa sarguzashtlarni hech qachon hayotdagi bitta shaxsdan ko'chirib ololmaydi. Unda adabiyot o'z vazifasini bajara olmas edi. Mirtemir akaning bir so'ziga e'tibor qiling "Ochil bobolarni ko'p uchratganman", deydi. Shu so'zni leningradlik muallima Chechulina ham takrorlaydi. Men ham aytishim mumkin: Ochil buvalarni ko'p ko'rganman. Aks holda mening Ochil buvam duyoga kelmasdi". Darhaqiqat, Qobiljonning qissasidagi Mahmud kosib ham adibning aynan o'zining bobosi emas XIX asrning 30-40-yillaridagi o'zbek xalqining barcha bobolaridir.

Biz keyingi e'tiborni asar bosh qahramonlari 13 yoshdagi aynan o'smir davrdagi bolakaylarga qaratdik. Bolalar uchun maktab hayotidan olib yozilayotgan ko'pchilik asarlarni o'qib kishining esnasi qotadi. "Ularning aksariyati odat tusiga kirib qolgan "ikir-chikirlar darsga kechikib keladigan, dars tayyorlamay ikki oladigan, kitob o'qish o'rniga o'yinqaroqroq, odob bilmas tinib-tinchimas to'polonchilarning kirdikorlari haqida. Shu xil "ikir-chikirlar"ga ham yangi tomondan yondashib, muhimroq gap aytish, bolalar ruhiy dunyosini yangi qirralarini kashf etish mumkin, albatta. Bunga Chingiz Aytmatovning "Oq kema" asari butun bir qirg'iz xalqi emas, barcha elat va millat vakillari uchun umumbashariy mavzularni yoritib bera olgan asar sifatida olishimiz mumkin". Biz o'rganilayotgan asar qahramoni ham mana shunday "ikir-chikirlar"dan holi emas. Bir vaqtlar ishchi ziyoli qishloq hayoti haqidagi asarlarda bo'yoqlar bir-biridan keskin farq qilar, masalan, oddiy dehqon bilan ziyoli obrazi qarama-qarshi qo'yilar edi. O'sha kezlari hayotning o'zida ahvol shunday edi. Endilikda shahar bilan qishloq jismoniy mehnat bilan aqliy mehnat orasida, ular yashayotgan ijtimoiy muhitda hech qanday tafovutlar yo'q, ular orasida hech qanday farqlar qolmayotganini o'zimiz ham guvohi bo'lyapmiz.

Asardagi ikki o'rtoq: Bahodir bilan Baxtiyor 6-sinf o'quvchilari ularning sevgan mashg'uloti: futbol o'yini, kompyuterda o'tirish, darslarga kirmaslik, bolalar bilan urushish. Bu kabi salbiy xususiyatlar hozirgi davr barcha bolalari uchun xosdir. Hozirgi sharoitni, bolalarni qurshab olgan muhitni hisobga olish kerak. Fan-texnika mislsiz mo'jizalar ko'rsatayotgan davrda yashayapmiz. Har bir xonadonda ommaviy informatsiya vositalari berayotgan ma'lumotlardan bolalar ham bahramand bo'lishmoqda yoki chekka hududlarda ham katta-kichik futbol maydonlari qurib, foydalanishga topshirilmoqda. Asarda bosh qahramonlarning futbol o'yiniga qiziqishlari bu, albatta, tabiiy hodisa. Yozuvchi tomonidan bu holat quyidagicha yoritilgan. "Bir kuni G'anisher big'illab yig'lab qoldi, ko'zimni ochsam, devorga suyanib orqasini silagancha dod solyapti. Tushundimki, bugungi penalti G'anisherga tepilgan. Darsda ham xayolim stadionlar-u, 7-ning chopqir yigitlarida, zaldagi naqshinkor futbol to'plarida turadi. Bu narsa kasallik deb aytasizmi yoki qiziqishmi, o'zingizga havola". Vaholanki, qishloq bolalari o'ynash uchun vaqti ziq. Axir, ular, avvalo, o'qiydi, o'qishdan keyin ro'zg'or ishlariga qarashadi, bola ko'taradi, tomorqada ishlaydi, mol-qo'ylarni boqadi va dala ishlarida oilasiga yordam beradi. Ana shu ulkan ijtimoiy vazifalarni ado etayotgan kichkintoy zahmatkashlarning adabiyotdagi to'laqonli obrazi qani? Qobiljonning asarida ham qishloq bolasining haqiqiy bekorchi, o'ta sust obraz sifatida berilishi kitobxonni qishloqda tug'ilib o'sgan bolalarga nisbatan salbiy qarashlarni paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Zero, "Bola shaxsiga xilma-xil yondashish, inson va uning qalbi haqidagi haqiqatni to'laroq aytish, uning kuchli va ojiz jihatlarini ro'y-rost ko'rsatish, uni bir

yoqlama, shunchaki oq va qora timsol qilib ko'rsatishdan qochish- bularning barchasi hozirgi adabiy jarayonning eng xarakterli tendensiyalaridan biridir".

Asarda yo'l qo'yilgan kamchiliklardan biri, bolalarning yo'qolib qolishida ota-onalarining beparvo, loqayd o'z farzandlari tarbiyasiga nisbatan e'tiborsizligi diqqatimizni tortdi. Bolalar 54 kun mobaynida buvasining oshqozonidagi mamlakatda sayr-sayohat qiladilar, o'zga bir olam fuqarosi sifatida yashaydilar. Mana shu muddat ichida ota-onalarning farzandlari yo'qolib qolishida hech qanday xavotir olmaydilar, ularni axtarib ham ko'rmaydilar. Bu voqea qissada quyidagicha tasvirlanadi. "Hamma dasturxon atrofida jam bo'ldi. Oyim uzatgan piyolani olar ekan G'anisher ayamga qarab": Bahodir akam yana stadiongga ketibdi, shekilli, ertalab tursam, joyida yo'q!"-dedi burnini tortib. Goh-gohida kallayi saharlab orqa tomonga o'tib to'p dumalatadigan odatim borligini bilishgani uchun hayratga tushmadi". Odatda bizning o'zbek oilalarida bola tarbiyasi juda muhim vazifalardan biridir. Bu masalada hech qachon ota-onalar befarq bo'lmaydi, aksincha, farzandlari yosh go'daklik chog'idanoq ularni to'g'ri tarbiyalashga harakat qiladilar. Maskur qissada esa, bu holat yana takrorlanadi, ular qayta kichraytiruvchi dorini ichib, maktub yozadilar va mitti odamlarning olamiga ketishga ahd qiladilar. Mana shu voqealar rivojida muallif balki, hozirgi kundagi bolalar tarbiyasi sustlashib ketayotganligini ochib berishga harakat qilayotgandir, lekin beparvolik, loqaydlik juda yomon illatlardan biridir. Bu masalada hech kim e'tiborsizlik qilmaslik kerak. Chunki arzimagan e'tiborsizlik katta ko'ngilsizliklarga sabab bo'lishi muqarrar. Yana shu xususida mashhur faylasuflardan biri shunday deydi: "Dushmanlardan qo'rqma-nari borsa, ular seni o'ldirishi mumkin. Do'stlarda qo'rqma-nari borsa, ular senga xiyonat qilishi mumkin. Befarq odamlardan qo'rq-ular seni o'ldirmaydi ham, sotmaydi ham, faqat ularning jim va beparvo qarab turishi tufayli yer yuzida xiyonat va qotilliklar sodir bo'laveradi". Yuqoridagi fikrlar hozirgi globallashuv davrimizning g'oyat muhim ahamiyatga ega bo'lgan dolzarb masalalaridan biridir. O'nib-o'sib kelayotgan yoshlarni ta'lim-tarbiyasida ech birimiz befarq bo'lmasligimiz, ularni qilayotgan ishlaridan doim xabardor bo'lishimiz kerak.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, yosh ijodkor Qobiljon Shermatovning "Buvamning oshqozonidagi mamlakat" asari hozirgi davrda sodir bo'layotgan ijtimoiy muammolar bilan birga bolalar tarbiyasida uchraydigan ba'zi bir kamchiliklarni an'ana sifatida davom ettirib, sarguzasht-fantast badiiy asarlar qatoridan joy oldi. Ilmiy maqolada o'zimizning fikrlarga tayangan holda asarda qo'yilgan ba'zi bir kamchiliklarni bildirib o'tdik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. U. Normatov. Yetuklik maqolalar. G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. -T. : 1982.
2. U. Normatov. Go'zallik bilan uchrashuv. Yosh gvardiya nashriyoti.- T. :1976.
3. Q.Shermatov. Buvamning oshqozonidagi mamlakat. Akademnashr.-T. :2021.
4. R.Umrzaqov. XX asr qissalarida bola obrazi:davr va ruhiyat dissertatsiya.-F. :2021.
5. O'.Nosirov. Ijodkor shaxs, badiiy uslub,avtor obrazi. Fan nashriyoti. -T. :1981.
6. Gafurovich, S. A. (2021). Analysis Of The Poem" Autumn Dreams" By Abdulla Oripov. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 3(01), 556-559.
7. Sabirdinov, A. . (2021). ASKAR KASIMOV IN THE UZBEK POETRY OF THE XX CENTURY THE ROLE AND IMPORTANCE OF CREATION. *Конференции*, 1(2).
8. Mukhammadjonova Guzalkhan. The image of a creative person in the poetry of Erkin Vohidov. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*. Volume : 10, Issue : 11, November. - India, 2020.
9. Mukhammadjonova, G. (2020, December). ARTISTIC INTERPRETATION OF THE CREATIVE CONCEPT IN WORLD LITERATURE. In *Конференции*.
10. Abdurashidovich K. A. Motivation and National Character of Foolishness in Uzbek Literature //ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies. – 2018. – T. 7. – №. 4. – C. 47-51.
11. Qayumov A. CREATING OF A NATIONAL CHARACTER THROUGH MEANS OF LITERATURE //Theoretical & Applied Science. – 2018. – №. 1. – C. 235-240.
12. Джураева, М. А. (2020). THE CONCEPT OF A NEW HUMAN-BEING IN MODERN UZBEK STORIES. *Ученые записки Худжандского государственного университета им. академика Б. Гафурова. Серия гуманитарно-общественных наук*, (2), 85-89.
13. Oripova, G. (2019). UZBEK POETRY AND THE WORLD LITERATURE IN THE YEARS OF INDEPENDENCE. *Scientific Journal of Polonia University*, 32(1), 116-120.
14. Oripova Gulnoza Murodilovna. (2019). THE PECULIARITIES OF VAZN METER IN UZBEK POETRY OF THE INDEPENDENCE PERIOD. *International Journal of Anglisticum. Literature, Linguistics and Interdisciplinary Studies*. Volume: 8 /Issue:2/. – Macedonia, 2019. – P.33-39.
15. Akhmadjonova O. A. Symbolic And Figurative Images Used In The Novel "Chinar" //The American Journal of Social Science and Education Innovations. – 2021. – T. 3. – №. 03. – C. 389-392.

16. Ahmadjonova, O. (2020, December). THE ARTISTIC SKILL OF THE CREATOR. In Конференции.6. Oripova G. M., Tolibova M. T. Q. Composition Of Modern Uzbek Stories //The American Journal of Social Science and Education Innovations. – 2021. – Т. 3. – №. 03. – С. 245-249.
17. Xasanova, X. (2020, December). THE MISSION AND LITERATURE OF LETTERS IN STORIES AESTHETIC FUNCTION. In Конференции.
18. Makhmidjonov, S. (2021). ARTISTIC INTERPRETATIONS OF THE EDGES OF THE HUMAN PSYCHE. Интернаука, (15-3), 75-76.
19. Yulchiyev, Q. (2019). The development of lyric chronotop in Uzbek poetry. *Scientific journal of the Fergana State University*, 2(2), 77-81.
20. Юлчиев, К. В. (2020). ЛИРИК ШЕЪРДА БАДИЙ МАКОН МУАММОСИ. МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА, 3(5).
21. Azimovich, R. Z. Chronotope Image in the Novel" Ulugbek Treasure" by Odil Yakubov. *International Journal on Integrated Education*, 3(11), 183-186.
22. Rahimov, Z., & Gulomov, D. (2020, December). RETROSPECTIVE STRUCTURE IN FICTION. In Конференции.
23. OYBEK'S POETRY THROUGH ANALYSES OF REPRESENTATIVES OF OYBEK STUDIES SCHOOL. MS Dehkonova - Theoretical & Applied Science, 2020
24. Dehqonova Maxsuma Shavkatovna, Sabirdinov Akbar G'afurovich, S.A.Xo'jaev, & Muxammadjonova Go'zalxon. (2022, May 1). 80 YEARS OF BAKHTIYOR NAZAROV IN UZBEK LITERARY CRITICISM. <https://doi.org/10.5281/zenodo.6519217>
25. UMURZAKOV, R. (2018). Social environment and spiritual world of teenager in narrative "Saraton" by N. Fozilov. *Scientific journal of the Fergana State University*, 1(4), 104-105.
26. Umurzakov, R. (2021). ERA AND SPIRIT IN THE STORY "TWICE TWO IS FIVE". *Journal of Central Asian Social Studies*, 2(02), 26-35.
27. Kasimov, A. Albert Camus in Uzbekistan.
28. Kasimov, A. A. (2020). PECULIARITIES AND SIMILARITIES OF SYMBOLIC EXPRESSION IN THE NOVELS "THE PICTURE OF DORIAN GRAY" AND "THE MAN AT THE MIRROR". *Theoretical & Applied Science*, (5), 590-592.
29. JURAYEV, H., & ABDURAHIMOVA, J. (2018). Semantic layers of the expression in the Babur lyric. *Scientific journal of the Fergana State University*, 1(3), 111-112.
30. Rustamova I.I. Rhythm Views on the Plot of the Work / / Badiy asar syujetida ritm ko'rinishlari. // International Journal of Innovative Research. – India, June, 2021, –P. 8355-8357.

31. Rustamova I.I. PORTRAIT AND ITS ARTISTIC-AESTHETIC FUNCTION IN THE WORKS OF ABDULLA QAHHOR//Abdulla Qahhor asarlarida portretning badiiy-estetik funksiyasi//AMERICAN JOURNAL OF SOCIAL AND HUMANITARIAN RESEARCH. – America, December, 2021, –P. 230-234.